

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MULTIMEDIA SAVODXONLIGINI OSHIRISH

Xaydarova Shaxlo Narzullayevna  
PhD. Navoiy davlat pedagogika instituti  
E-mail: xaydarovashaxlo@mail.ru

Shermetova Shahnoza Otomurod qizi  
Navoiy davlat pedagogika instituti Ta'lim  
va tarbiya nazariyasi (Maktabgacha ta'lim) yo'nalishi 1-bosqich magistranti

### Аннотация

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berish jarayonida, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish va multimedia savodxonligini oshirish samaradorligi hamda, tarbiyachi va bolalarni kompyuterdan foydalanishning zarurati va multimediya texnologiyalarining ahamiyati, mazmuni, afzalligi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lim tashkiloti, axborot, media savodxonlik, internet, multimedia, axborot texnologiyalari vositalari, tarbiyalanuvchi, media ta'lim, kompyuter, kommunikatsiya.

## ПОВЫШЕНИЕ МУЛТИМЕДИЙНОЙ ГРАМОТНОСТИ У ДОШКОЛЬНИКОВ

Хайдарова Шахло Нарзуллаевна  
PhD. Навоийский государственный педагогический институт  
Навоий. E-mail: xaydarovashaxlo@mail.ru

Шерметова Шахноза Отамуродовна  
Навоийский государственный педагогический институт  
Магистрант 1 ступени теории воспитания и обучения  
(дошкольное образование)

### Аннотация:

В данной статье говорится о важности, содержании и преимуществах использования современных информационных технологий и мультимедийных технологий в процессе обучения детей дошкольного возраста.

**Ключевые слова:** Организация дошкольного образования, информация, медиаграмотность, интернет, мультимедиа, информационные технологии, ученик, медиаобразование, компьютер, общение.

## IMPROVING MULTIMEDIA LITERACY OF PRESCHOOL CHILDREN

Khaydarova Shakhlo Narzullaevna  
Navoi state pedagogical institute, PhD  
E-mail: xaydarovashaxlo@mail.ru

Shermetova Shahnoza Otamurodovna  
Navoi State Pedagogical Institute, 1st stage master's degree in the field of theory of education and upbringing (preschool education)

**Annotation:** This article talks about the importance, content, and benefits of multimedia technologies in the process of educating preschool children, the use of modern information technologies and the necessity of children using computers.

**Key words:** Preschool education, information, media literacy, Internet, multimedia, information technology tools, student, media education, communication.

### Kirish

Hozirgi rivojlanayotgan davlatimizda ta'lim va tarbiya sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohatlar va bu borada yaratilayotgan imkoniyatlar, shart-sharoitlar nihoyatda kengayib keyingi yillarda davlatimiz siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Shu jumladan, uzluksiz ta'limning dastlabki bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim sohasining ayni paytdagi rivojlanishi buning yorqin isbotidir. Barkamol avlod ta'lim tarbiyasida turli texnologiyalarni, jumladan, multimedia texnologiyasini tatbiq etish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biri sanaladi.

So'nggi yillarda multimedia vositalaridan ta'limning barcha sohalarida keng qo'llanilmoqda. Shu sababli, yosh avlodning media savodxonligini shakllantirish maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunning 53-moddasida maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlash vazifalar belgilangan bo'lib, jumladan, ta'lim tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish ko'zda tutilgandir [1].

Yuqorida bayon qilingan fikrlardan ko'rinib turibdiki, maktabgacha ta'lim tizimiga ma'nan mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashda raqamli texnologiyalar,

multimedia texnologiyalaridan foydalanish va multimedia texnologiyasini joriy etish, tarbiyalanuvchilarni kompyuter bilan elementar tarzda foydalanishga o'rgatish va maktab ta'limiga kompyuter savodi bilan tayyorlash, kompyuterni faqat o'yin vositasida emas, balki ta'lim berish vositasi sifatida foydalanish hamda kompyuter o'yinlarida multimediani tatbiq etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri ekanligini ko'rsatadi [3].

**Asosiy qism.** Hozirgi kunda media, ya'ni ommaviy axborot vositalari, kino, teatr, san'atning turlari, madaniyat sarchashmalari, internet orqali uzatilayotgan har qanday ma'lumot insonga o'zining ma'lum bir ta'sirini o'tkazib, uning dunyoqarashini o'zgartirishga sabab bo'lmoqda. Yuqorida tilga olingan tushunchalarning qo'llanilishi va bugungi kunda media ta'lim, media savodxonlik, media tanqid va mediani o'rganishga bo'lgan intilishning asosiy maqsadi ham axborotning yaratilishi, uning tarqalish jarayonini tushunib yetish, tijorat, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va madaniy maqsadlarda tarqatilayotgan axborotning mohiyatini anglagan holda uni baholay olishdir.[2]

Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachi tarbiyaviy faoliyat jarayonida har bir mavzu bo'yicha to'liq ma'lumot beruvchi va bolalarning yosh davrlariga mos ravishda animatsion video roliklar yaratib faoliyat olib borsa, shuningdek har bir mavzuni mustahkamlashga oid qiziqarli interfaol kompyuter o'yinlarini tashkillashtirsa, o'quv faoliyati bolalar uchun ancha samarali va qiziqarli hamda foydali tarzda bo'ladi. Zamonaviy axborot texnologiyalari ya'ni multimedia vositalari orqali bilim berishning an'anaviy usullardan afzalligi shundaki, har bir videorolik orqali o'quv faoliyat mavzulari multfilmlar orqali bola tilida yoritiladi, bu orqali esa bolaning bilim olishga ishtiyoqi va qiziqishi sezilarli darajada ortadi. Kompyuter o'yinlari orqali bolalar mustaqil ravishda topshiriqlarni bajarishda xato javobni belgilasada unga kompyuter tanbeh bermaydi, do'stlari orasida izza qilmaydi, natijada bolaning o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi, bola o'zini boshqalar oldida erkin yengil his qiladi va fikrlash qobiliyati rivojlanadi.

Yosh bolalar tevarak-atrofga, voqea va xodisalarga, narsa va buyumlarga qiziquvchan bo'ladi. Hamma narsani ushlab, paypaslab, yurgizib, harakatga keltirib ko'rishni yoqtiradilar. Kompyuter o'yinlari tarbiyalanuvchilarning ushbu qiziquvchanlik xususiyatini oshiradi. Natijada, ularning aqliy rivojlanishi shakllana boradi. Multimediali kompyuter o'yinlari tarbiyalanuvchilarning qiziquvchanlik xususiyatini oshirishini quyidagilar asosida yaqqol ko'rishimiz mumkin bo'ladi:

- ❖ Ekranida ko'rsatiladigan o'yin obyektiga animatsiya samarasi berilgan bo'lishi va ular doimiy ravishda harakatlanib turishida;
- ❖ Tovushida;
- ❖ Musiqada;
- ❖ Animatsiyada;

#### ❖ Multifikatsiyada;

O‘yin davomidagi ushbu “kompyuterli” psixologik-pedagogik ta’sirlar yosh bolalarning faqat qiziquvchanlik xususiyatini oshiribgina qolmasdan, balki bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqini ham oshiradi. Bu ma’lumotlardan ma’lum bo‘ldiki, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar tarbiyasining shakllanishida axborot texnologiyalari ya’ni, multimedialardan foydalanish uni maktabgacha ta’lim tashkilotlarida samarali qo‘llash hozirgi kunning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi.

Media vositalarini tayyorlash va bolalarning kompyuter savodxonligini shakllantirish metodikasi shaxsiy kompyuterlar multimedia texnologiyasining asosiy texnik vositasi hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga media ta’lim-tarbiya berish jarayonida, foydalanish uchun qo‘shimcha vositalar - kompyuter va fleshkalar, prezentatsiyalar, kompakt disklar, turli xil taqdimotlar, slaydlar va hokazolar talab etiladi. Multimedia texnologiyalaridan foydalanish jarayonida tarbiyalanuvchining yoshi, darsga tayyorgarlik darajasi, jamoadagi o‘zaro munosabatlari va o‘zini tutish va boshqarish qobiliyatlarini e’tiborga olish lozim.

**Muhokama va natijalar:** Fikrimizcha, har bir maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari dasturli va rolli multimedia vositalaridan har bir mavzuga doir videolar, slaydlar va turli zamonaviy texnologiyalar asosida materiallar tayyorlab kelib o‘quv faoliyatlari jarayonlarida qo‘llashlari mumkin. Kompyuter video diski multimedianing texnik vositasi sifatida bir necha afzalliklarga ega.

Kompyuterdan foydalanib, o‘rganiladigan materialni bosqichlar bo‘yicha to‘la ma’lumotga ega bo‘lgan holda, ba’zi hollarda alohida elementlarini ko‘rish mumkin, zarur bo‘lganda material qayta namoyish etiladi. Kompyuter video diskda sxemalar, rasmlar, grafiklar ham joylashtirilgan bo‘ladi. Bolalarda multimedia savodxonligini oshirish uchun biz, kompyuter va dasturlash mahoratini rivojlantirishimiz, fotosurat va videolarni tahlil qilishni o‘rganishimiz, shuningdek, media vositalari orqali ma’lumotlarni topishimiz va qo‘llashimiz kerak bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga tarbiyachi ta’lim faoliyat jarayonida zamonaviy axborot texnologiya va dasturiy vositalardan foydalanishi unga bir qancha imkoniyatlar yaratadi.

Masalan:

- Mashg‘ulotlar uchun ajratilgan vaqtni tejashga;
- Mashg‘ulotlarni “o‘yin” tarzida olib borishga;
- O‘qitishning motivatsiyasini kuchaytirishga;
- Bolalarni turli ko‘rinishidagi faoliyat turlariga jalb qilishga;
- Fikrlash, mulohaza qilish va bahslashishga;
- Mashg‘ulot jarayonida audio, video va multimedia materiallaridan foydalanishga imkon beradi.

Multimedia vositalaridan foydalanish bolalarning bilim olishida, mavzuni o'zlashtirishga qiziqishlarini ortishida; mustaqil ravishda o'qish, sanash va qo'shishni o'rganishlarida; predmetlar, sonlar orasidagi bog'liqlikni tushunishlariga katta yordam beradi. Bundan tashqari, media vositalari bolalarda atrof-muhitdagi voqea-hodisalarni tadqiq qilishlari va kuzatishlariga; mulohaza qilish va fikrlash qobiliyatlarini ortishiga olib keladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish o'z navbatida bir qancha xususiyatlarni o'z ichiga olib, tarbiyalanuvchilarning faolligini oshirishda, o'rganiladigan o'quv materiallarni hajmini ko'paytirishda, ta'lim jarayonini oldindan loyihalashda, natijani kafolatlashda, ta'lim shaklini qulaylashtirishda, shuningdek, ta'lim mazmunida, tuzilishida, uslublarida va turli shakllarida namoyon bo'ladi. Tarbiyalanuvchilar olgan bilimlarini uzoq vaqt xotiralarida saqlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Biz hammamiz media olamida yashaymiz va har kuni media savodxonlik muammolariga duch kelamiz. Maktabgacha yoshdagi bolalarga bunday qiyin sharoitda o'zini tutish qoidalari va o'z-o'zini himoya eta olishni o'rgatish juda muhimdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimediali kompyuterli ta'limni amalga oshirishning asosiy talablaridan biri - bolalarning kompyuter savodxonligini shakllantirish va ularni kompyuterda mustaqil ishlashini ta'minlashdan iborat. Ayni paytda media ta'lim asoslarini har bir ta'lim muassasasida o'quv dasturiga kiritish, bolalarga maktabgacha ta'lim jarayonida uning asoslarini interaktiv, turli o'yinlar shaklida tushuntirish, o'sib kelayotgan avlod tomonidan shiddatli axborot oqimida zarurini tanlash va unga tanqidiy yondoshgan holda baholay olish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida yoshlarning kelajakdagi fuqarolik pozitsiyasini yanada mustahkamlanishiga, jahonda yuz berayotgan voqea-hodisalarni xolis baholab, to'g'ri qaror qabul qila olishiga asos bo'ladi [5].

S.S.G'ulomov: "Agar bolalar berilayotgan materiallarni ko'rish (video) asosida qabul qilsalar axborotni xotirada saqlab qolishi 25-30 %ga oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishida mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab borish 75 %ga ortadi" deb ta'kidlagan [4]. Yuqorida G'ulomov aytganidek, bolalarga ta'lim berishda tarbiyachi faoliyat jarayonida ularga amaliy bajartirib yoki mavzuga doir ko'rgazmali materiallardan foydalansa, dars ancha qiziqarli va ajoyib tarzda o'tadi. Tarbiyachi multimedia vositalari orqali ta'lim-tarbiya berishda, har bir bolaning qobiliyatlarini aniqlab, rivojlantirishi mumkin. Bu zamonaviy sharoitlarda o'zini o'zi o'qitishning eng yaxshi usuli bo'lib, fikrlashning mustaqilligini rivojlantirishi mumkin, bu diqqatni jamlashni kuchaytiradi va bola tezda bir harakatdan ikkinchisiga o'tishni o'rganadi.

**Xulosa va tavsiyalar.** Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedia savodxonligini oshirishda tarbiyachi bolalar bilan turli faoliyat jarayonlarida o'tkazgan to'garaklarida bolaning yoshini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini yoshiga mos

qilib zamonaviy axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanishni va xavfsizlik qoidalariga amal qilgan holda o'tkazishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalar multimedia savodxonligi ta'lim faoliyat jarayonlarida zamonaviy axborot texnologiyalari tushunchasiga ega bo'lib va ulardan qanday qilib to'g'ri foydalanishni va xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni o'rganib oldilar. Maktab ta'limiga o'tgandan so'ng texnologiya fanlarini o'qishlari ancha oson bo'ladi, chunki, bola dastlabki boshlang'ich tushunchalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mustahkam poydevorni qo'ygan bo'ladilar. Bolalarda multimedia savodxonligini oshirish uchun quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

- Pedagog bolalar uchun maqbul multimedia vositalarini tanlashi kerak, ya'ni bolalarning o'zlari uchun qulay va yoshiga mos vositalardan foydalanishi;
- O'quv tarbiyaviy faoliyatlarni multimedia vositalaridan foydalanib bolalar uchun tushunarli va qiziqarli usullarda tashkil etishi;
- Bolalarda multimedia savodxonligini oshirish jarayonida ularning ota-onalari va tarbiyachilari o'zaro hamkorlikda ishlashlari ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilganda, multimedia texnologiyasining MTTlardagi ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbig'i – tarbiyalanuvchilarga kompyuterlar asosida yangicha texnologik yondashuv hisoblanadi. Multimedia texnologiyasidan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish bir vaqtning o'zida bolalarning kompyuter savodxonliklarini shakllanishiga ham olib keladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 16 dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi 595-sonli Qonunning 53-moddasi. Mediasavodxonlik va u nima uchun kerak? – hurriyat (uzhurriyat.uz)
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-talim-tashkilotlarining-talim-tarbiya-jarayonida-multimediaga-asoslangan-kompyuter-o'yinlarini-qo'llash/viewer>
3. <https://www.journals.uz/wp-content/uploads/2020/06/ADU-Xalqaro-konferensiya-4.pdf>
4. <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/umumiy-o'rta-talim/Media-va-axborot-savodxonligi.htm>